

## INGILIZ VA O'ZBEK TILARIDA "HAYOT" VA "O'LIM" NI BILDIRADIGAN FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING SEMANTIK TAHLILI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8170513>

**Boboqulova Gulasal Bobir qizi**

### **Annotatsiya**

*Ushbu maqolada, frazeologik birliklar tilning boshqa birliklaridan farq qiluvchi, o'ziga xos ma'no va shaklga ega bo'lgan birikmaligi haqida, Ingliz tilida ham boshqa tillar singari tilning milliy-madaniy semantikasini o'rganish muhim hamda qiziqarli hisoblanishi haqida, frazeologik birliklar tilning madaniy paradigmlarini aks ettiruvchi boyligini aks ettirishi haqida so'z boradi.*

### **Kalit so'zlar**

*frazeologik birliklar, ingliz tili, o'zbek tili, semantik tahlil, tilshunoslik, leksikologiya, stilistika.*

Frazeologiya tilshunoslikning murakkab sohalaridan biri hisoblanib, u tilshunoslikning bir qator bo'limlari bilan, jumladan, leksikologiya, stilistika, semantika, etimologiya morfologiya, grammatika bilan bevosita bog'liqdir.

Frazeologiyani tadqiq qilishda yuqorida sanab o'tilgan sohalar bilan bir qatorda mamlakatshunoslik, fonetika, falsafa fanlar tarixi va mantiq kabi fanlar bilan o'zro aloqador. Frazeologik birlik tarkibidagi so'z har doim ham o'zining morfologik xususiyatlarini yo'qotmaydi, morfologiya saqlanib qolgan va yo'qotilgan xususiyatlarni o'rganish imkonini beradi.

Turli xususiyatlarga ega bo'lgan frazeologik birliklar majmui tilning frazeologik qatlamini tashkil etadi. Tilning frazeologik qatlami doimiy ravishda yangi frazeologik birliklar bilan boyib boradi va xalqning madaniy tarixiy tajribasini, shuningdek, muayyan tilning tarixiy taraqqiyot qonunlarini aks ettiradi. Frazeologik birliklarni o'rganish va tasnif qilish bilan frazeologiya fani shug'ullanadi.

Frazeologiya tarkibida turli xil strukturali ya'ni so'z birikmasi shaklidagi va gap shaklidagi birikmalar kiritiladi. Sintaksisga oid ma'lumotlardan yuqoridagi kabi birliklar grammatik va funksional tahlilida foydalaniladi.

Frazeologik birliklar tilning boshqa birliklaridan farq qiluvchi, o'ziga xos ma'no va shaklga ega bo'lgan birikmalardir. Ular so'zlar va erkin birikmalardan farqli ravishda sintaktik jihatdan yaxlit, semantik jihatdan o'zgarmas hisoblanadi.

Ingliz tilida frazeologik birliklarni rus tilshunosi Kunin boshqa til birliklaridan quyidagicha farqlaydi:

- turg'unlik ikki yoki undan oriq leksimadan yasalishi;
- tilda tayyor holda saqlanib, nutqqa shundayligicha olib kirilishi.

Frazeologik birliklar va erkin birikmalar tuzilishi jihatidan ham semantik jihatidan ham alohida alohida birliklardir. Frazeologik birliklar yaxlit holda yoki qisman ko'chma ma'noga ega so'z birikmasi yoki gap tuzilishiga ega birliklar hisoblanadi. Turg'unlik frazeologik birliklarga xos xususiyat hisoblanadi.

Erkin birikmalar va so'zlar esa morfemalardan tashkil topgan bo'ladi. So'zlar va erkin birikmalar lug'aviy ma'noda ham ko'chma ma'noda ham qo'llanilish xususiyatiga ega bo'ladi, ammo frazeologik birliklar faqatgina ko'chma ma'noda qo'llaniladi.

So'zlar va frazeologik birliklar tilning turli xil sathlariga tegishli. Frazeologizmlar tilning frazeologik sathiga tegishli bo'lsa, so'zlar esa leksik sath birligiga tegishlidir. Bu ikkala sathning farq qiluvchi jihatlari bilan bir qatorda, umumiy bo'lgan ko'p ma'nolilik, omonimlik va antonimlik xususiyatlari ham mavjud.

Frazeologik birliklarning yana bir o'ziga xos bo'lgan, boshqa til birliklaridan farq qiluvchi belgisi ham mavjud. Bu uning reproduktivlik belgisidir. Chunki frazeologik birliklar nutq jarayonida yasalmasdan, nutqqa kirgunicha tilda yaxlitlanib, shakllanib bo'lgan, so'zlovchi va tinglovchiga tushunarli bo'ladi. Frazeologizmlar tarixiy jihatdan tayyor, turg'un va yaxlit xolda berilgan bo'ladi. Ammo u tilda birdan hosil bo'lmasdan, ko'p qo'llanilishi va barcha tomonidan tushunarli bo'lishi natijasida turg'unlashadi. Mana shu xususiyati bilan u tilning milliy va ma'daniy xususiyatlari bilan bir qatorda millatning tarixini ham o'zida mujassamlashtiradi.

Frazeologik birliklar nutqni yanada ta'sirchan va ifodali bolishiga xizmat qiladi. Ular faqat nutqni bezamasdan, boshqa til birliklari kabi yuqori informativ xususiyatga ega tilda nominativ va kommunikativ funksiya bajaruvchi birliklardir. Frazeologizmlar universal til vositalari hisoblanib, ularsiz til mavjud emas.

Ingliz tilida ham boshqa tillar singari tilning milliy-madaniy semantikasini o'rganish muhim hamda qiziqarli hisoblanadi. Chunki ular avloddan avlodga tilning o'ziga xos ichki tuzilmalarini, tabiat o'ziga xosliklari, mamlakatning iqtisodi hamda ijtimoiy tuzilishi, san'ati, urf-odatlarini hamda tarixini ham o'zida mujassamlashtira oladi. Ularda bolalar milliy o'yinlari, pul birliklari to'g'risida, milly tabobat, ov hamda baliq ovi haqida, o'simlik va hayvonot dunyosi haqida,

insonning tashqi ko'rinishi, kiyinishi va turmush tarzi va ko'plab boshqa milliy mentalitetga xos mavzular aks etgan bo'ladi.

**Frazeologik sinonimiya** – sinonimiya til birliklari orasidagi semantik mikrosistemalardan biri bo'lib, frazeologik birliklar orasida ham anchagina. Ikki frazeologik birlikni sinonim deyish uchun ular ayni bir ma'noni anglatishi shart. Busiz sinonimiya haqida gapirib bo'lmaydi. Ayni bir ma'nolilikni teng ma'nolilik deb tushunish yaramaydi. Har bir sinonim, shu sinonimiya uyasi uchun umumiy ma'no o'zidan tashqari, o'ziga xos ma'no qirrasiga ega bo'ladi.

Sinonimlar odatda bir yoki bir necha jihatdan farqqa ega bo'ladi, shulardan biri ma'no qirrasidagi farq bo'lishi mumkin. Masalan, yer bilan yakson bo'lmoq – yer bilan yakson qilmoq, kulini ko'kka sovurmoq – kuli ko'kka sovurildi yoki to be in a bad mood va to be down in the mouth frazeologik birligiga sinonim: ayni bir ma'noni anglatadi. Bu sinonimlar, boshqa belgi-xususiyatlaridan qat'i nazar, ma'no qirrasida farq qiladi: ikkinchisida ma'no bir qadar kuchli.

Frazeologik sinonimlarni belgilashda ular asosida boshqa boshqa obrazning yotishi ham hisobga olinadi. Masalan, bir og'iz, bir shingil, bir chimdim sinonim frazeologik birliklari, asosida har xil obrazlar yotadi: so'zlash organi, bir bosh uzumning qismi, chimdib olinadigan miqdor.

Sinonim frazeologik birliklarni bir frazeologik birlikning variantlaridan ajratish kerak. Buning uchun frazeologik birliklarning so'z-komponentlariga diqqat qilish kerak. Leksik tarkibida ayni bir so'z-komponent qatnashmaydigan frazeologik birliklarning sinonim ekani shubha tug'dirmaydi. Masalan, "butun tafsiloti bilan, mayda-chuydasigacha" ma'nosini anglatadigan ipidan ignasigacha, miridan sirigacha, qilidan quyrug'igacha frazeologik birligiga o'zaro sinonim bo'lib, ular tarkibida umumiy so'z-komponent yo'q.

Frazeologik birliklar tilning madaniy paradigmalarni aks ettiruvchi boyligini aks ettiradi. Ma'lum bir tilda so'zlashuvchilar. Ular etnolingvistikaning madaniy arxetiplarini aks ettiradi, jamiyat va uning dunyo idrokining o'ziga xos xususiyatlarini aniq ko'rsatishga yordam beradi.

Frazeologik birliklar tilning alohida birliklari sifatida tilshunoslarning diqqat markazida bo'lgan. 20-asr boshlarida va 20-asrning ikkinchi yarmida bular so'z birikmalari ilmiy tadqiqot ob'ektiga aylandi. Har qanday tilda frazeologiya (yoki idiomatiklik) sohasi juda xilma-xil va qiziqarli. Inson butun umrini turli nuqtai nazardan ko'rib chiqish va tahlil qilish uchun sarflashi mumkin.

Frazeologik birlik - bu o'rnatilgan, universal va muhim element bo'lib, ehtiyotkorlik bilan foydalaniladi.

Frazeologik birliklar rang-barang, jonli va shuning uchun ham qiziqarli ular lingvistik bezaklardir - deb atash mumkin. Shu bilan birga, ular qiyin, chunki ularni oldindan aytib bo'lmaydigan ma'nolar, grammatika va kopincha maxsus ma'nolarga ega bo'ladi.

Ushbu ishning maqsadi frazeologik birliklarni tadqiq qilishdir. Ularning tuzilishida ingliz va o'zbek tillarida "hayot" va "o'lim" elementlarini o'z ichiga oladi.

Maqsadga erishish uchun ba'zi vazifalar belgilanadi, masalan:

- Frazeologik birliklarning turli ta'riflarini o'rganish va tahlil qilish;
- Frazeologik birliklarni muayyan semantikaga mansubligiga qarab guruhlarda tasniflash.

Yuqoridagi fikirlardan kelib chiqqan holda, ingliz va o'zbek tillarida "hayot" yoki "o'lim"ga oid tushunchalar orqali bir nechta frazeologik birliklar semantik tahlil qilib chiqildi va bir nechta usullar yordamida keng yoritilib berildi.

Hayot so'zini semantik tahlil qiladigan bo'lsak bunga misol tariqasida

Hayot qisqa vaqt tez- life is short and fast

Hayot mayda narsalardan iborat- life is made up of little things

El hayoti yer bilan,

Yer hayoti suv bilan.

El life with earth,

Earth life with water

O'lim so'zini tahlil qilish uchun esa:

O'lim kelganda uni qaytarolmaysan- when death comes you cannot return it

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullayev A. Frazeologizmlarning ekspressivlik xususiyati.-T.:O'TA. 1976. 5- son.
2. Abdullayev A. O'zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi.- T.: Fan.1983.
3. Mamatov A.E." O'zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi.-T.:1997.-B.37.
4. Yo'ldoshev B.'Frazeologik uslubiyat asoslari" SamarqandDU.1999.- B.86. 6. Frazeologik iboralarning tarjimasini haqida.- T.: O'zMU to'plami. 2007
5. haydarov A., Jo'raqulova G. Frazeologik iboralar tarjimasini xususida. Tilning leksik- semnatik va qiyosiy tipologik izlanishlar: sinxroniya, dioxroniya materiallar to'plami.-T.: Muharrir. 2012.- B.10-13. 9. Kharatova, S. K.,& Ismailov, T. X. O. G.